

Toshpo'latova Barchinoy Shoniyoz qizi

Toshkent Shahridagi Turin Politexnika Universiteti

ANNOTATSIYA

Maqolada urbanizatsiya jarayonlarining milliy va umumbashariy jihatlari, ularning madaniyatga ta'siri masalalari tadqiq etiladi. Urbanizatsiya global rivojlanishiga eltuvchi ijtimoiy-madaniy fenomen ekanini ochib beriladi. "Urbanizatsiya" tushunchasi uning asosiy yo'nalishlari, tizimi, xususiyatlari va hududiy, regional jihatlari haqida turli qarashlar hamda urbanizatsiyani keng ijtimoiy-madaniy, jo'g'rofiy, etnosotsial, arxitektura, boshqarish, infratuzilmalar, shahar xo'jaligi, xizmat ko'rsatish, demografiya va migratsiya, aglomeratsiya, qishloq turmush tarzi, transport aloqalar, kabi ko'plab sohalar va omillar bilan bog'liqligi haqida fikrlar bayon etiladi. "Sivilizatsiya" atamasining insoniyat tarixida ijtimoiy aloqa vositalari, til, boshqarish tizimi, shaharlar yuzaga kelgani bilan izohlanishi hamda sivilizatsiya va sivilizatsion rivojlanish haqidagi ilmiy bahslar shu bilan birga "urbanizatsiya" va "sivilizatsiya" tushunchalari, falsafiy germeneytik nuqtai nazardan, bir biriga yaqin va bir-birining o'rnini to'ldirib keluvchi voqeliklar ekanligi to'g'risida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar. *urbanizatsiya, shahar madaniyati, migratsiya*

ANNOTATION

The article examines the national and universal aspects of the processes of urbanization and their impact on culture. It is revealed that urbanization is a socio-cultural phenomenon leading to global development. The concept of "urbanization" includes different views on its main directions, system, characteristics, territorial and regional aspects, as well as broad socio-cultural, geographical, ethno-social, architectural, managerial, infrastructural, urban economy, services, demography and opinions about the connection with many directions and factors, such as migration, agglomeration, rural lifestyle, transport links, etc. The interpretation of the term "civilization" in the history of mankind with the advent of social communication tools, language, management system, cities and scientific discussions about civilization and civilizational development, as well as the concepts of "urbanization" and "civilization", from a philosophical and hermeneutic point of view, are close to each other. friend and at the same time. It seems that they are realities that fill the place.

Keywords. *urbanization, urban culture, migration*

АННОТАЦИЯ

В статье исследуются национальные и общечеловеческие аспекты процессов урбанизации и их влияние на культуру. Выявлено, что урбанизация представляет собой социокультурный феномен, ведущий к глобальному развитию. Понятие «урбанизация» включает в себя различные взгляды на ее основные направления, систему, характеристики, территориально-региональные аспекты, а также широкие социокультурные, географические, этносоциальные, архитектурные, управленческие, инфраструктурные, городское хозяйство, сервисное обслуживание, демография и мнения о связи со многими направлениями и факторами, такими как миграция, агломерация, сельский образ жизни,

транспортное сообщение и др. Трактровка термина «цивилизация» в истории человечества с появлением средств социальной коммуникации, языка, системы управления, городов и научных дискуссий о цивилизации и цивилизационном развитии, а также понятий «урбанизация» и «цивилизации», с философско-герменевтической точки зрения, близки друг к другу и в то же время. Думается, что они реальности, заполняющие место.

Ключевые слова. урбанизация, городская культура, миграция

KIRISH

“Urbanizatsiya” lotincha urbanus, soʻzlaridan olingan boʻlib, “shahar”, “shaharga taaluqli”, “shahar qiyofasiga mansub” degan maʼnolarni anglatadi. Mutaxassislarining taʼkidlashicha, urbanizatsiya tarixiy rivojlanish asosida shakllangan jamiyat bosqichlarini va hududiy mehnat taqsimoti natijasida sodir boʻlgan koʻp qirrali geografik, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik jarayondir. Urbanizatsiyaning torroq doiradagi demografik-statistik tushunchasi dunyoda, alohida hududlarda, mamlakatlarda shaharlarning (ayniqsa, katta shaharlarning) va shahar aholisi salmogʻining koʻpayib borishini anglatadi [1,114 b].

Urbanizatsiya global, umumplanetar koʻrinishga ega jarayondir. Unda shaharlar va shahar madaniyatining oshib borishi, qishloq aholisining shaharga migratsiyasi, natijada katta va yirik shaharlarning yuzaga kelishi muhim koʻrsatkichi hisoblanadi [2;3;4].

Agar 1950 yilda dunyo aholisining 28,9 foizi shaharlarda yashagan boʻlsa, bu koʻrsatkich 1960 yilda 33,9 foizga, 1970 yilda 37,4 foizga, 1980 yilda 41,1 foizga, 1990 yilda 45,8 va 2000 yilda 51,2 foizga koʻtarilgan. Baʼzi manbalarga koʻra, bugun dunyo aholisining 60 foizdan ziyodi shaharlarda yashaydi, 1900 yilda dunyodagi millioner shaharlar soni 10 ta edi. 2001 yil ularning soni 200 dan oshiq boʻlgan, hatto Mexikoda 25, Tokioda 20, Seulda 13, Pekinda 11 million, Parij, Qohira, Buenos-Ayres va Londonda 10 milliondan ziyod aholi yashaydi [1,114 b]. Jahonda millioner shaharlarning koʻpayish tendensiyasi shahar madaniyatining jozibali hodisa boʻlib borayotganini koʻrsatadi. Shahar madaniyati, oʻz mohiyatiga koʻra internatsional, polifunksional va ochiq tizimdir. U turli etnomadaniyatlar bilan uygʻunlashib, murosaga kirishib yaxshi xususiyatiga ega boʻlgani uchun erkin yashashga moyil kishilarni oʻziga jalb etadi. Yirik ijodkorlar, ilm-fan dargʻalari, tadqiqot va texnologik markazlar, oʻquv yurtlari, xizmat turlari asosan katta shaharlardan ekani shundandir. 1900 yilda atiga ikki shahar Sankt-Peterburg va Moskva millioner shahar boʻlishga davogar shahar edi. Bugun ularning soni 10 tadan oshgan [5]. Oʻzbekistonda faqat Toshkent - millioner shahardir. Dunyo boʻyicha bugun millioner shaharlar soni 548 ta, ularning 33 tasida 10 milliondan ziyod aholi yashaydi. Prognozlariga koʻra, 2030 yilga borib ularning soni 703 ga etadi va ularning 43 tasi 10 milliondan ziyod aholiga ega boʻladi [6]. Bunday shaharlarni boshqarish va umumiy strategik maqsadga muvofiq rivojlantirish koʻplab muammolarni hal etishga undaydi. Bunday millioner shaharlar davlat ichidagi davlat tarzida kompleks muammolarni keltirib chiqaradi [7]. Katta va yirik shaharlarning maftunkor tomoni kishilarga keng madaniy xizmat turlarining taqdim etishidir. Ammo ular fransuz faylasufi J.Bodriyer kuzatishiga va fikriga koʻra, aholida “isteʼmolchilik”ni ham avj oldiradi [8]. Mazkur muammo alohida tadqiq etilishi kerak, ammo, bizning fikrimizcha, katta va yirik shaharlar, megapolislar, yangi sitalarning yuzaga kelishi umumbashariy yaqinlashishni, etnomadaniyatlarining unifikatsiyalashuvini keltirib chiqaradi. Hozirning oʻzidayoq internet aloqalar, xalqaro gumanitar huquq talablari etnoanʼanalarni unifikatsiyalash tomon yetaklamoqda.

Katta va yirik shaharlar madaniyati situativ (vaziyatga muofiqlashish, yuzaga kelgan muammoga moslashish) xususiyatga ega. Barcha narsani ratsionallashtirish, tig'izlashtirish va "zamondan ortda qolmaslik", serxarakatchanlik uning asosiy belgilaridir. O'ylashga, irratsional mulohazalarga joy yoq, xamma narsaga ulgurish kerak. Bunday hayot tempi qishloq madaniyatiga xos emas. Natijada madaniyatlarning ushbu ikki ko'rinishi o'rtasida "bir-birini tushunmaslik" kelib chiqishi mumkin. Bu ham alohida o'rganiladigan mavzudur.

Urbanizatsiyaga sivilizatsion taraqqiyot ko'rinishi sifatida qarash bugungi tadqiqotchilarda ustuvorlik qiladi. Muammoga retrospektiv yondashgan tadqiqotchilar urbanizatsiyaning ilk ko'rinishlari eramizdan avvalgi III-I ming yilliklardayoq mavjud bo'lganini qayd etishadi. Shaharsozlik, kishilarning o'troq hayotga o'tishi, umumiy normalar va turmush tarzining shakllanishi insoniyat tarixida shunday jarayonlar ediki, ular hayotni madaniylashtirish, osonlashtirish va qulaylashtirishni ustivor istakga aylantirdi [9;10;11]. Keyingi global taraqqiyotlar shu paradigma mahsulidir.

Urbanizatsiyaning navbatdagi belgilaridan biri aholi sonining oshishi, ya'ni ijtimoiy-demografik omil bilan bog'liq. Unga ko'ra XX asr o'rtalarigacha qishloq ijtimoiy-demografik o'sish manbai bo'lib kelgan. Keyin esa shahar aholisi soni o'sa boshlagan. Mutaxassislarining keltirishicha urbanizatsiyaning ijtimoiy-demografik jarayonlar bilan bog'liq bosqichi shimoliy Amerika va Yevropaga 1750- 1950 yillarga to'g'ri keladi. Bu yillarda, o'sha tartibda, shahar aholisi 10 foizdan 52 foizga ko'paygan. Ya'ni 15 milliondan 423 millionga oshgan. Undan keyingi ikkinchi bosqichda shahar aholisi 309 milliondan 3,9 milliard kishiga yetgan. Bu shahar aholisining 18 foizdan 56 foizga oshganidan darak beradi. Keyinchalik bu jarayonga Afrika, Osiyo va butun dunyo qo'shiladi.

"Urbanizatsiya" va "sivilizatsiya", etimologik nuqtai nazardan shaharga taalluqli tushunchalardir. "Sivilizatsiya" so'zini ilmiy atama sifatida ilk bor (1766 yilda) ishlatgan frantsuz faylasufi N.A.Bulanje hisoblanadi. Biroq uning kitobi keyinroq chop etilgani uchun atamani ilmiy iste'molga kiritgan Golbaxdir. Biroq ba'zi tadqiqotchilar uni 1767 yilda ilmiy iste'molga shotland faylasufi A. Fergyson kiritgan, deb hisoblaydi. A.Fergyson "sivilizatsiya" tushunchasini "ijtimoiy strat" va shaharlarning yuzaga kelishi bilan bog'lagan. "Sivilis" so'zini fuqaroviy, shaharga taalluqlilik, davlatga doirlik, ma'nolarida ishlatgan. "Sivilizatsiya" atamasining insoniyat tarixida ijtimoiy aloqa vositalari, til, boshqarish tizimi, shaharlar yuzaga kelgani bilan izohlash boshqa tadqiqotchilarning asarlarida ham uchraydi. Biroq bu boradagi, ayniqsa, sivilizatsiya va sivilizatsion rivojlanish haqidagi ilmiy bahslar hali davom etmoqda. Ulardan qaysi yondashuv ob'ektiv, realikka yaqin ekanini keyingi tadqiqotlar ko'rsatadi. Biz uchun "sivilizatsiya" tushunchasining urbanizatsiyaga yaqinligini ta'kidlash, ular o'rtasidagi singarmoniyani ko'rsatish, biz bugun ishlatayotgan "urbanizatsiya" va "sivilizatsiya" tushunchalari, falsafiy germenevtik nuqtai nazardan, bir biriga yaqin va bir birini to'ldirib keluvchi voqeliklar ekanini tasdiqlash, umuminsoniy taraqqiyotda ularning ikkalasi ham muhim rol o'ynaganini ochib berish muhimdir.

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichi urbanizatsiyalash tomon qaratilgan. Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2019 yil 10 iyulda urbanizatsion taraqqiyotni ta'minlashga oid maxsus "Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risidagi" farmoni qabul qilindi. Unda Respublikamiz ijtimoiy taraqqiyotida urbanizatsiya jarayonlari yetarli darajada hisobga olinmagani ta'kidlanadi. Natijada so'nggi yillarda urbanizatsiya darajasining pasayish tendensiyasi kuzatilmoqda. Shahar aholi punktlari soni atigi 1065 dan 1071 gacha ko'paygan. Yirik qishloq aholi punktlarini shahar posyo'lkalariga

aylantirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlarga qaramasdan bugungi urbanizatsiya darajasi shaharlarni kompleks rivojlantirish bo'yicha zamonaviy talablarga javob bermaydi va jahon tendensiyalaridan sezilarli darajada qolib ketmoqda. Bunda urbanizatsiya darajasi hanuzgacha barqaror xususiyatga ega emas [12].

Zamonaviy urbanizatsiya faqat shaharsozlik, binolar qurish emas, u keng ma'nodagi shahar madaniyatini, shahar aholisining barcha ehtiyojlarini qondirishga loyiq infratuzilma yaratishni taqazo etadi. Uning markazida nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, shuningdek, demografik, madaniy, xizmatlar ko'rsatish ham turadi. Yangi O'zbekistonda bu sohalarida ma'lum bir ishlar amalga oshirilmoqda. Shaharlarimiz ko'rki o'zgarmoqda, siti - yangi shaharchalar paydo bo'lmoqda, transport xizmatlarida izlanishlar uchraydi. Prezidentimizning "Iqtisodiy rivojlanish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" (2019 yil 10 yanvar) Farmonida ham urbanizatsiya davlat siyosati darajasidagi soha ekani ta'kidlanadi [12;13]. Ularga ko'ra, urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirishning asosiy vazifalariga quyidagilar kiritilgan:

1. Mutlaqo yangi uy-joy siyosatini amalga oshirishda urbanizatsiya bilan bog'liq muhandislik, transport va ijtimoiy infratuzilmalar bilan ta'minlangan, ayniqsa, kam va o'rta daromadli oilalar uchun arzonlashtirilgan turar joylar qurush;
2. Turar-joy va noturar-joy bino va inshootlar ostidagi yer uchastkalariga egalik huquqini amalga oshirishni kafolatlash;
3. Qishloq aholisining shaharlarga harakatlanishini ta'minlashga oid shart-sharoitlar yaratish;
4. Yirik shaharlar aholisining faravonligini va ish bilan bandligini ta'minlash, hududlardagi Oliy o'quv yurtlari va ilmiy tadqiqot institutlari asosida texnoparklar tashkil etish;
5. O'rta shaharlarni boshqarish va servis sohalarini rivojlantirishda xorijiy tajribalardan foydalanish;
6. Yangi shaharlar va yo'ldosh shaharlar tarmog'ini kengaytirish, ijtimoiy-ishbilarmonlik zonalar hududlarini kengaytirish;
7. Iqtisodiyot va sanoat vazirligi huzurida Urbanizatsiya agentligi va Urbanizatsiyani rivojlantirish jamg'armasini tashkil etish;
8. O'zbekiston Respublikasida 2030-yilgacha urbanizatsiyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish.

Mutloq yangi uy-joy siyosatini amalga oshirishda xududlarning jo'g'rofiy, aholining ijtimoiy ehtiyojlarini, ayniqsa kam va o'rta ta'minlangan oilalar uchun arzon turar-joylar qurish Yangi O'zbekistonda muhim ahamiyatga ega. Aholining imkoniyatlarini hisobga olmay quriladigan turar-joylar, ayniqsa, poytaxtda avj olganini, avtokratizm davrida ro'y bergan "elita joylar va massivlar" yaratish aholida ularga nisbatan salbiy munosabatlar uyg'otganini unitolmaymiz. Masalan, Toshkent temir yo'l vokzaliga etmay yaratilgan "elita massiv"ning yarmiga yaqini bombo'sh yotibdi. Bunday bo'm-bo'sh turar joylarni ko'plab ko'rish mumkin. Buni payqash uchun arxitektor yoki xonama-xona yurib o'rganib chiqish shart emas, kechroq ko'chadan o'tsangiz, biz nazarda tutayotgan turar joylarda chiroq yoqilganini ko'rmaymiz. Ming' afsuski, bizda turar joylar fondlaridan foydalanish darajasi qancha ekani ilmiy o'rganilmagan. Bu borada mutasaddi idoralar ham aniq bir nima aytolmaydi. Yangi O'zbekistonning uy-joy siyosati ana shunday nomaqbul, ochiqdan-ochiq sudxo'rlik, hatto korrupsiyaga qurilgan tizimni bartaraf

etishi kerak. Buning usuli arzon turar joylar va massivlar barpo etish, aholiga uy-joy qurishi uchun kam foizli kreditlar ajratishdir.

Katta va yirik shaharlarda turar joyga yaroqli har bir metrdan unumli foydalaniladi. Inshootlar ostidan madaniy-maishiy ehtiyojlar uchun foydalanish tajribasi o'zimizda ham uchraydi. Lekin ushbu tartibni rasmiy asosda amalga oshirishning huquqiy asoslari yaratilmagan. Masalan, 2017-2019 yillarda Respublikamizdagi ko'p qavatli uylar atrofni qurilmalardan holi qilish xarakati o'tkazildi. Aholi tashlandiq yerlarni obod qilib yaratilgan "ogorod" lar tep-tekis qilindi, yon-atrofni bezab turgan mevali daraxtlar, gulzorlar, yo'laklar buzib tashlandi. Lekin o'rniga hukumat hech nima ekmedi. Natijada o'sha joylar ahlatxonaga aylantirildi. Shuning uchun ham Prezidentimizning yuqoridagi Farmonlarida turar-joylar fondi va inshootlar ostidagi yer uchastkalaridan foydalanishni huquqiy kafolatlash masalasi qo'yilgan.

Qishloq aholisining shahar imkoniyatlari va madaniyatidan foydalanishni faollashtirish urbanizatsiyani tezlashtiruvchi omildir. Urbanizatsiyada ichki migratsiya, yani, qishloq kishilarini shaharlarga harakatlanishi muhim o'rin tutadi va urbanizatsiya ko'rsatkichlariga kiradi [14]. Masalan, Toshkent shahriga har kuni turli maqsadlarda 1,5 millionga yaqin kishi kelib ketadi. Butun jahon banki QROUNDSWELL ning keltirishicha, 2050-yilgacha Markaziy Osiyoda ob-havo, ekologiya, suv tanqisligi kabilar bilan bog'liq "klimatik migrant"lar soni 5 million dan oshadi. Ular asosan Farg'ona vohasi, Toshkent shahri atroflari va Shimoliy Qozog'iston hududlariga ko'chib boradi [16]. Ushbu harakatlanish transport xizmatlarini kengaytirishni talab etadi va migrantlar ehtiyojlarini qondiruvchi shaharlar infratuzilmalaridan foydalanish muammolarini keltirib chiqaradi. Urbanizatsiya jarayonlariga Oliy ta'lim muassasalari, ilmiy-texnik markazlar, ularga qishloq yoshlaridan iborat oqimning kelib qo'shilishi muammoning dolzarblik jihatdan biri hisoblanadi. Hayotiy kuzatishlardan ham ma'lumki, katta shaharlardagi OTM larda ta'lim olgan yoshlarning deyarli yarmidan ko'pi shaharlarda qolishga intiladi. Bu esa shahar infratuzilmasiga va hududlariga ta'sir etadi. Shahar hayotini har gal yangilashga, innovatsion idrok etishga undaydi [15, s.48-56.]. Dunyo urbanistikasi va umumbashariy hayot, taraqqiyot ilm-fan, texnika, intellektual izlanishlar asosiga qurilgan ekan. OTM va tadqiqot-institutlarini yanada faollashtirishni taqazo etadi. Ularga yangi-yangi ijodiy kuchlar, yoshlar kirib kelishi obyektiv zaruriyatdir. Xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, yirik shaharlardagi OTM va tadqiqot institutlarini asosan ichki migrantlar, shahardan tashqari hududlardan keladigan yoshlar tashkil etadi [16]. Ammo buning bir manfiy tomoni bor, bu yoshlar avvalo shahar muhitiga, ilmiy jamoa talablariga moslashishi kerak. Bu jarayon sekin, ba'zan esa juda og'ir kichadi. Chunki chekkadan kelgan yosh ilm-fan, ta'limdagi innovatsiyalarni tez va kerakli darajada o'zlashtiravermaydi.

XULOSA

Xulosa shundagi urbanizatsiya muammosi faqat milliy ehtiyoj va taraqqiyot talabi emas, unda umumbashariy ahamyatga ega, global rivojlanishga yordam beradigan jihatlar mujassamdir. Ularni tadqiq etish avvalo ijtimoiy falsafaning vazifasi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Alimqulov N.R., Abdullaev I.H., Holmurodov SH.A. Amaliy geografiya. – T.: 2020.
2. Abdullaev I.H. va boshq. Ma'muriy geografiya. – T.: 2020.
3. Abdullaev I.X. Ekologiya va tabiatni muxofaza qilish. O'UM, TDPU, 2022
3. Rafikov A.A. Geoekologik muammolar. T., O'qituvchi.T., 2020.

4. G'ulomov P.N. geografiya va tabiatdan foydalanish. T., O'qituvchi. T., 2020.
5. World Bank. (2021). Urban Development Overview.
<https://www.worldbank.org/en/topic/urbandevelopment/overview>
6. World Bank. (2022). Managing Urbanization.
<https://www.worldbank.org/en/topic/managing-urbanization>
7. UN. (2018). 68% of the world population projected to live in urban areas by 2050.
8. UN. (2019). World Urbanization Prospects: The 2018 Revision
9. World Bank. (2022). Urban population (% of total population)
10. ADB. (2019). Key Indicators for Asia and the Pacific 2019
11. Cohen, B. (2020). Urbanization in developing countries: Current trends, future projections, and key challenges for sustainability. *Technology in society*, 28(1-2), 63-80.
12. Teune, H. (2023). Urbanization: Social Aspects. *International encyclopedia of the social sciences. Biographical supplements (Vol. 18, pp. 649-655)*.
13. Chandramouli, C. (2021). Urbanization in South Asia: Trends, Patterns and Policy Issues. *Regional Conference on Urbanization in South Asia*.
14. Rozanov, B. G. (2020). Problems in population forecasting. *Progress in Geography*, 7, 1-42.
15. Batty, M. (2022). *Urban modelling. Cambridge Urban and Architectural Studies*.
16. Heppenstall, A., Crooks, A., See, L., & Batty, M. (Eds.). (2022). *Agent-based models of geographical systems. Springer Science & Business Media*.